



+

Fuqaro murojaati qanoatlantirildi

2020 yil 17 iyun kuni fuqaro Abduraxmonov Umomali Raxmonaliyevich So'x tuman adliya bo'limiga murojaat qilib, pensiya yoshiga yetganligi sababli BTPJ So'x tuman bo'limining 2020 yil 15 iyundagi 101-sonli qarori bilan uni 01. 04. 1992 yildan 27. 08. 1997 yilgacha Qirg'iziston Respublikasining "Xaydarkon smob" kombinatida ishlagan davrlari uchun ish haqi va ish haqlaridan sug'urta badallari ushlaganligi to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud emasligi sababli pensiya tayinlashda mazkur ishlagan davrlari pensiya hisoblashda ish stajiga hisobga olinmasdan rad qilinganligi ma'lum bo'lgan.

Shunga ko'ra, So'x tuman adliya bo'limi tomonidan 2020 yil 18 iyun kuni fuqaro Abduraxmonov Umomali Raxmonaliyevichning manfaatini ko'zlab, So'x tuman adliya bo'limi tomonidan tuman ma'muriy ishlar bo'yicha sudiga davo ariza kiritildi va sudning 2020 yil 18 iyun kungi hal qiluv qaroriga asosan So'x tuman adliya bo'limining arizasi qanoatlantirilib, So'x tuman BTPJnig 2020 yil 15 iyun kungi №101-sonli qarori haqiqiy emas deb topilib, byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasi So'x tuman bo'limi zimmasiga arizachi Abduraxmonov Umomali Raxmonovich 01. 04. 1992 yildan 27. 08. 1997 yilgacha Qirg'iziston Respublikasining Xaydarkon simob kombinatida ishlagan davrlarini pensiya hisoblashda ish stajiga olish majburiyati yuklatilib, So'x tuman adliya bo'limi tomonidan kiritilgan davo arizasi qanoatlantirildi.

Muammoli vaziyatga duch kelgan shaxs katta umid bilan birovdan madad so'raydi. Muamosi yechimini topsa, hayotga qiziqishi ortadi va jamiyatga kerakligini anglaydi.

M.Qodiraliyev - So'x tuman adliya

bo'limi boshlig'i

2020-07-10 19:44:08